O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 24 - yanvar 21-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 3 noyabrdagi “Toshkent tumanidagi yaroqsiz holatdagi obyektlarni buzish to‘g‘risida” 530-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlar hisobidan 2024-yilda amalga oshiriladigan qurilish-ta‘mirlash ishlari bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 83-sonli Rayosat majlisi bayoni hamda **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 3 noyabrdagi “Toshkent tumanidagi yaroqsiz holatdagi obyektlarni buzish to‘g‘risida”** 530-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 3noyabrdagi “Toshkent tumanidagi yaroqsiz holatdagi obyektlarni buzish to‘g‘risida”** 530-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyati bolalar ftiziatriya sihatgohining Toshkent tumani, Xasanboy ko`chasi, 57-uy manzilida joylashgan obyektni, Toshkent viloyati yoshlar siyosati va sport boshqarmasining Toshkent tumani, “Iftixor” MFY, M.Qashqariy ko‘chasida joylashgan “Sport maktabi” (stadion tribunasi) obyektni foydalanishga yaroqsiz holatga kelganligi sababli buzib tashlash to‘g‘risidagi takliflari maqulllanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent tumani hokimining o‘rinbosari (Mirsagatov), Tuman Tibbiyot

birlashmasi bosh shifokori (X.Asadov), Toshkent tumani yoshlar siyosati va sport bo‘limi (D.Mansurov) obyektlarni belgilangan tartibda buzilishi uchun shaxsan mas’ul etib belgilanganligi inobatga olinsin.

Bunda:

buzish natijasida yaroqli deb topilgan qurilish materiallarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

binolarni buzilishidan bo‘shaydigan yer maydonidan kelgusida samarali foydalanish choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**